

## SHARAFIDDIN ALI YAZDIYNING ZAFARNOMA ASARI MAZMUN MOHIYATI

**To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna**

*Surxondaryo viloyatidagi Afg`oniston  
fuqarolarini o`qitish ta`lim markazida  
katta o`qituvchi*

**Khairaddin Rashidi**

*Surxondaryo viloyatidagi Afg`oniston  
fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi  
talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sharafiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asari mazmun mohiyati haqida so`z boradi. Ali Yazdiyning adabiyot va tilshunoslik, falakiyot, musiqa sohasida hamda so`fizm nazariyasi muammolari bartaraf etishda hissa qo`shishi yuqori baholanadi.*

**Kalit so`z:** *Sharqshunoslik, janr, she`r, shoir, asar, muallif, falakiyot, so`fizm*

Sharofiddin Ali Yazdiy Taft (Eron) qishlog`ida dunyoga keladi. 1415-1419 yillarda u hukmdor Ibrohim Sultonning saroyida, Ali Yazdiy Xuroson hukmdori Amir Temurning o`g`li Shohruhmirzoga xizmat qildi. Keyinchalik Shohruhmirzoning buyrug`iga ko`ra Ali Yunusxonning murabbiysi bo`lgan. 1419-1425 yillarda o`zining asosiy asari hisoblangan "Zafarnoma" (Fotihlar kitobi)ni yozdi, albatta bu asar sohibqiron erishgan g`alabalari va harbiy yurishlariga bag`ishlangan.

1442-1446 yillarda u Qozvana, Sulton, Roya, Qama (Eron) — Shohruhmirzo nevarasi Sulton Muhammad humdorlari qo`llarida xizmat vazifasini o`tadi. 1447 yil Samarqandga keldi, Mirzo Ulug`bek bilan falakiyot ilmi tadqiqotlarini so`nggi bosqichlarida ishtirok etdi. Shohruhmirzo vafotidan keyin ona Vataniga qaytib, umrining qolgan qismini shu yerda o`tkazdi. 1454 yili Taft shahrida vafot etdi va o`sha joyga dafn etildi.

Yazdiy 13 ta ilmiy ishi yaratib, ularning orasida "Zafarnoma" (Fotihlar kitobi) asari mashhurlikka erishgan.

Muallif o`z ijodiy ishida turklarning kelib chiqish tarixi, Chingizxon tarixi, XIV asr boshlarida Markaziy Osiyo va qo`shni mamlakatlardagi siyosiy ahvoli ichki urushlar va tarqoqlikning kuchayishi natijasida sohibqiron Amir Temur maydonga chiqqanini ta'kidlab o`tgan. Ali Yazdiy Amir Temurning Movaraunnahr barpo etishini keng va to`liq tushuncha berib o`tgan.

Ali Yazdiyning tarixiy "Zafarnoma" asari orqali dunyoga tanilgan. Ushbu solnoma Amir Temurning hukmronlik davri voqyea-hodisalarini XIV- XV asrlarda tarixiy manba sifatida nafaqat O`rta Osiyo, Oltin O`rda, Eron va Afg`onistonlarni o`z ichiga oladi. Bundan tashqari, Ali Yazdiyning adabiyot va tilshunoslik, falakiyot, musiqa sohasida hamda so`fizm nazariyasi muammolari bartaraf etishda hissa qo`shishi yuqori baholanadi.

"Zafarnoma", Fathnomayi Temuriy, Tarixi Jahongushoyi Temuriy — Amir Temur davlati tarixiga bag'ishlab yozilgan asar. Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan Ibrohim Sulton farmoniga ko'ra, 1419— 25-yillarda Sherozda fors tilida yozilgan.

"3." aslida "Fathnoma" yoki "Fathnomayi Temuriy" yoki "Tarixi Jahongushoyi Temuriy" deb nomlangan bo'lsada, Nizomiddin Shomiynint "Zafarnoma" siga mazmunan yaqinligi tufayli keyinchalik "3." nomi bilan shuhrat topgan. Asar 2 qismga: Temurdan oldingi davr tarixidan umumiy tarzda so'zlovchi "Muqaddima" va Temur davri tarixini yorituvchi asosiy qism "Zafarnoma" ga bo'linadi.

Muallifning ta'kidlashicha, Ibrohim Sulton o'z bobosi Amir Temur haqida maxsus kitob yozilishini niyat qilgan va 1419—20-yillarda o'z vaqtida kotiblar, baxshi, munshiyalar tomonidan Temur haqida ham turkiy, ham forsiy tillarda yozib qoldirilgan mavjud ma'lumotlarni yig'ib keltirish haqida farmon chiqargan. Bu ish amalga oshgach, mazkur ma'lumot — hujjatlarni o'rganishga kirishilgan. "Z." ning so'z boshida qayd etilishicha, Amir Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon qilingan hikoyalarning hamma she'riy va nasriy nusxalari to'plangach, ma'lumotlar bilan tanishish uchun uchta guruh tuzilgan. Turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni, voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan shohidlar esa bir guruhni tashkil qilgan. Dastlab Temur haqidagi har bir hikoya o'qilgan, agar uning mazmuni voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan shohidning talqiniga to'g'ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni tiklash uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Temurning yana boshqa zamondoshlaridan surishtirgan yoki qo'shimcha ma'lumotlar to'plagan. Shu qo'shimcha hikoyatlarni ham tinglagach, Ibrohim Sulton aytib turgan va kotiblar yozib borgan. Shu tarzda asarning dastlabki xomaki nusxasi tayyorlangan. Sharafiddin Ali Yazdiy ana shu xomaki nusxa asosida "3." asarini yozgan. Ibrohim Sultonning qat'iy buyrug'iga binoan kitob-ni yozish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasida masofa o'lchovlari haqidagi barcha ma'lumotlar juda sinchiklab tekshirilgan. Sharafiddin Ali Yazdiydan esa asarni jonli til bilan tushunarli qilib yozish talab etilgan va shuningdek, u hujjatlarga qat'iy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita shaxsiy nazorati ostida tuzilgan dastlabki xomaki yozuvdan aslo chetga chiqmasligi hamda hech narsani bo'yab ko'rsatmasligi shart qilib qo'yilgan. Asar til uslub jihatdan fors tilining o'sha 15-asr adabiy uslubini mukammal bilgan savodxon uchun mo'ljallangan. Asarning muqaddima qismini Sharafiddin Ali Yazdiyning o'zi "Tarixi Jahongir" deb nomlagan, lekin "Muqaddima" deb mashhur bo'lib, "3." ning ajralmas qismi hisoblangan. Shu bilan birga, hajmi katta bo'lganligi tufayli bo'lsa kerak, qo'lyozma nusxalarda alohida mustaqil asar sifatida ham tarqalgan. U so'z boshi, ikki fasl va xotimadan iborat. "Muqaddima" dan ko'zda tutilgan maqsad Temur shajarasini bayon etish va uning o'zidan oldin o'tgan hukmdorlardan davlat arbobi va lashkarboshi sifatidagi ustunligini isbotlab berishdan iboratdir.

"3." asarining asosiy qismi esa, muallifning dastlabki rejasiga ko'ra, uchta maqoladan iborat bo'lmog'i lozim edi. Birinchi maqola Temurga, ikkinchisi uning o'g'li Shoxruxga va uchinchisi Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonga bag'ishlanishi ko'zda tutilgan edi. Biroq

"Z."ning hozirgi fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida keyingi ikki maqola yo'q, ular yoki yozilmagan, yoki bizgacha yetib kelmagan.

15— 16-asrlarda qahramonlik qissasi janrida ikki marta she'riy yo'l b-n: o'zbek tilida shoir Lutfiy va fors tilida Hotifiy tomonidan kuylangan. 16-asr boshlarida Shayboniylardan Ko'chkunchixonning topshirig'iga muvofiq, Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy tomonidan "3." o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima 1997-yil Toshkentda izoxdar va ko'rsatkichlar ilova qilingan holda chop etilgan. Adabiyotlarda Hofiz Muhammad ibn Axmad al Ajamiy tomonidan asarning turk tiliga tarjima qilinganligi haqida ma'lumot bor. Bulardan tashqari "3." 1822—23-yillarda Xivada Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad So'fi al Xivaqiy tomonidan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilinganligi ham ma'lum. 18-asrdan boshlab "Z."ning ayrim qismlari fransuz (Krua, 1713), ingliz (J. Darbi, 1723), ayrim voqealar rus tiliga ham tarjima qilingan. Asarning forscha matni esa 1887—88-yillarda Kalkutta, 1958-yil Tehronda chop etilgan, biroq bu nashrlarda asarning "Muqaddima" kismi hamda zaruriy ko'rsatkichlar berilmagan. 1972-yil Toshkentda asarning har ikki qismini qamragan O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 4472 raqamli qo'lyozmaning faksimil nashri amalga oshirildi. Bunda tarixiy manbalar ilmiy nashr uchun zaruriy bo'lgan bosh so'z va turli ko'rsatkichlar bilan birga asar matnining har xil nusxalar va nashrlar orasidagi farqlari ham qayd etildi. Sho'rolar davlatida Amir Temur shaxsigacha nisbatan o'ta salbiy xulosa o'rnashganligi sababli matbuotda temuriylar davri yozma merosini o'rganish ishi qattiq ta'qib qilindi, ba'zi asarlar bilan birga "3." ham qoralandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://arboblar.uz/uz/people/sharafaddin-ali-yazdi>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Zafarnoma\\_\(asar\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Zafarnoma_(asar))